

Date: 3<sup>rd</sup> May-2026

JAHON SAVDO TASHKILOTI – O‘ZBEKISTON. IQTISODIY XAVFSIZLIK  
MASALALARI, MINTAQAVIY BARQARORLIK VA AFZALLIK JIHLTLARI.

M.Sh.Sulaymonova

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Qo‘mitasi hodimi  
i.f.f.d (Phd)

**Abstract:** Uzbekistan is actively pursuing WTO membership after the longest negotiations in history. And finally, by 2026, membership has progressed rapidly. Uzbekistan’s application for WTO membership was submitted in December 1994, and the 31-year hiatus has shown the urgency of achieving this goal. If the government is serious about replacing its reliance on resource exports and protected manufacturing with a more diversified and competitive economy, Uzbekistan will achieve WTO membership and benefit from it. One of the biggest benefits is that this step will lead to further development at a time when the region is becoming more integrated and cooperative.

**Annotatsiya:** O‘zbekiston JSTga a‘zo bo‘lish bo‘yicha tarixdagi eng uzoq davom etgan muzokaralardan so‘ng a‘zolikka erishish uchun faol harakat qilmoqda. Va nihoyat 2026-yilga qadar a‘zolikka erishish, jadal qadamlar bilan rivojlandi. O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lish uchun arizasi 1994-yil dekabr oyida boshlab berilgan bo‘lib, oradan 31 yillik tanaffus ushbu maqsadga erishish dolzarbligini ko‘rsatib berdi. Agar hukumat resurslar eksporti va himoyalangan ishlab chiqarish faoliyatiga qaramlikni ko‘proq diversifikatsiyalangan raqobatbardosh iqtisodiyot bilan almashtirishga jiddiy yondashsa, O‘zbekiston JST a‘ziligiga erishadi va undan foyda oladi. Eng katta manfaatlardan biri esa mintaqada o‘zaro birlashuv va hamkorlik yuzaga kelayotgan davrda ushbu qadam uni yanada rivojlanishiga olib keladi.

**Аннотация:** Узбекистан активно стремится к членству в ВТО после самых длительных переговоров в истории. И наконец, к 2026 году процесс вступления в ВТО стремительно продвигается. Заявка Узбекистана на членство в ВТО была подана в декабре 1994 года, и 31-летний перерыв показал безотлагательность достижения этой цели. Если правительство серьёзно намерено отказаться от экспорта ресурсов и протекционистского производства в пользу более диверсифицированной и конкурентоспособной экономики, Узбекистан добьётся членства в ВТО и получит от этого выгоду. Одно из главных преимуществ заключается в том, что этот шаг приведёт к дальнейшему развитию в условиях всё большей интеграции и сотрудничества в регионе.

**Kirish.** Butun dunyoda savdo va ishlab chiqarish juda tez o‘zgarayotgan bir davrda, savdo cheklovlari, tariflar, xizmatlar bozori, intellektual mulk huquqlari, texnik tartib-qoidalar kabi ko‘plab omillar davlatlarning iqtisodiy salohiyatiga katta ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shunday vaziyatda jahon integratsiyasida muhim platformalardan biri sifatida Jahon savdo tashkiloti (*WTO- World Trade Organization*) ga a‘zo bo‘lish bugunning muhim ustuvor vazifalaridan biridir.



Date: 3<sup>rd</sup> May-2026



O‘zbekistonga Jahon savdo tashkiloti JST a‘zoliqi qanday afzalliklar keltirishi mumkinligi, qaysi sohalarda ijobiy ta‘sirilar kuzatilishi ehtimoli borligi, va buning bilan birga qaysi iqtisodiy xavfsizlikka doir ehtimollar mavjudligini ilmiy asosda ko‘rib chiqamiz. Mavzuni kengroq ochib berishda, mazkur tashkilotning tarixi va tarkibiy tuzilishiga alohida to‘xtalib o‘tishimiz joiz. JST ga 1995-yil yanvarda asos solingan. 1994-yil 15-apreldagi Marokash deklaratsiyasida «uning natijalari jahon iqtisodiyotini mustahkamlaydi va butun dunyoda savdoni, investitsiyalarni kengaytirib, ishchi kuchi bandligi, daromadlarning o‘shishiga olib keladi. Shuningdek, u jamoaviy bahslar, muzokaralar va taqdimlash orqali mamlakatlar orasidagi savdo aloqalarini rivojlantiruvchi platforma hisoblanadi», deb yozib qo‘yilgan<sup>12</sup>. 1995-yildan faoliyatini boshlagan bu tashkilotga ayni vaqtda a‘zo bo‘lgan 164 davlat uchun yangi bozorlar ochiq hisoblanadi. O‘ndan ziyod turli yo‘nalishdagi bitimlar uning normativ-huquqiy bazasini tashkil etmoqda. Mazkur hujjatlar talabini bajarish tashkilotning barcha a‘zolari uchun majburiy sanaladi. A‘zo bo‘lishni istagan davlatlar o‘z milliy qonunchiligini ularga muvofiqlashtirishi kerak. Bundan tashqari, tashkilotda qarorlar ishtirokchi mamlakatlar yordamida konsensus - umumiy ovoz berish orqali qabul qilinadi.

Jahon savdo tashkilotining asosiy funksiyalari sifatida xalqaro savdoni liberallashtirish, savdo bitimlarining odilligini ta‘minlash, iqtisodiy o‘shish va xalq farovonligini oshirish kabilar belgilangan. Davlatimiz uchun JST ga a‘zolik samaradorligi, yaratilgan sharoitlar va tayyorgarlik darajasiga chambarchas bog‘liq hisoblanadi.

Avvalo, bozor mexanizmlarini tartibga solish va mahalliy bozorni xalqaro savdo munosabatlariga tenglashtirishni yo‘lga qo‘yishda davlat asosiy ko‘prik vazifasini o‘taydi. Ushbu maqsadda:

- **iqtisodiyotni erkinlashtirish va sanoat tarmoqlari baravar rivojlanishini tartibga solish;**
- **narx-navoni tartibga solish va maqbul soliq tizimini vujudga keltirish;**
- **alohida sektorlar va ishlab chiqarishda subsidiyalarni saqlash;**
- **tovarlarni standartlash va sertifikatlash qilish tizimini tartibga solish;**
- **xorij sarmoyalari jozibadorligini oshirish;**
- **import va eksport boj to‘lovlari tarifini tartibga solish bo‘yicha qonuniy o‘zgarishlar yo‘lga qo‘yildi.**

Quyida mamlakatimizga WTO a‘zoliqi jihatidan kutilayotgan asosiy iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni sanab o‘tmoqchimiz.

**Xalqaro bozor va eksport imkoniyatlarini kengaytirish.** JST a‘zosi bo‘lish bilan davlatimizning tovar va xizmatlar eksporti uchun bozor ochilishi ehtimoli oshadi. Masalan, mamlakat eksporti ikki baravar oshirilishini maqsad qilgan. Eksport-yo‘naltirilgan sanoatni rivojlantirish, xususan tayyor mahsulotlar bo‘yicha erkin savdo va logistikani qo‘llab quvvatlash bo‘yicha rejalar belgilangan. JST ga a‘zolik bilan «teng sharoitlarda savdo» prinsipi davlatimiz uchun qo‘l keladi.

<sup>12</sup> Bozor boshqaruvi mexanizmlari ma‘lumotlar bazasi bo‘yicha JST TRIPS kelishuvi.

Date: 3<sup>rd</sup> May-2026

**Investitsiyalar va ishonchlikning oshishi.** JST ga qo‘shilish jarayonida davlatimizda qonuniy muhit va raqobatbardoshlik oshishi ko‘zda tutilgan. Masalan, ichki monopoliyalar huquqlari cheklanmoqda. Xalqaro investorlar uchun JST a‘zosi ekanligi — savdo va tarif rejimining barqarorligi hamda oldindan bilinish imkoniyati yaratishi tufayli — o‘zaro ishonch belgisini bildiradi.

**Ichki iqtisodiy modernizatsiya va raqobatbardoshlik.** JST ga qo‘shilish ichki bozorni himoya qilish choralari kamaytirishi, mahsulot sifatini oshirishga undashi mumkin. Masalan, ichki imtiyozlar va subsidiyalar bosqichi kamaytirilishi belgilandi. Ushbu raqobatbardoshlik bosimi orqali sanoatning samaradorligini oshirish, resurslarni yangicha ishlatish va ichki bozorni eksport-yo‘nalishda qayta tashkil etish imkoniyati yaratiladi.

**Iqtisodiy ochiqlik va qonun ustuvorligi.** JST ga qo‘shilish orqali O‘zbekistonda savdo rejimi va tariflar bo‘yicha tartib, shaffoflik oshishi ko‘zda tutilmoqda. Masalan, O‘zbekistonda 130 dan ortiq qonun hujjatlari JST ga muvofiqlashtirildi<sup>13</sup>.

Janubi Koreya xalqaro iqtisodiy siyosat instituti bosh ilmiy xodimi So Jin Kyoning qayd etishicha, O‘zbekiston JSTga a‘zo mamlakatlar safiga qo‘shilsa, ushbu davlatlar bilan mahsulot ayirboshlashda katta yutuqlarga erishadi<sup>14</sup>. Bunda a‘zo davlatlarga soliq, bojxona imtiyozlari taqdim etiladi. Masalan, hozirgi kunda ushbu tashkilotning har bir a‘zosi O‘zbekiston tovarlariga istalgan hajmda tariflar kiritishi mumkin, biroq davlatimiz tashkilotga a‘zo bo‘lgach, ularning bunday choralarni amalga oshirishiga chek qo‘yiladi. Ya‘ni, O‘zbekiston JSTga a‘zo bo‘lishi bilan unda tashkilot a‘zolariga bojxona to‘lovlarini kamroq to‘lash yoki umuman to‘lamaslik imkoniyati paydo bo‘ladi.

“O‘zbekiston- 2030” strategiyasida belgilangan JSTga a‘zo bo‘lishning milliy iqtisodiyotga ta‘sirini o‘rganish uchun Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ekspertlarining tadqiqotlarida ochiqlandi. O‘zbekistondagi tariflar darajasini JSTga a‘zo davlat bo‘lgan Qozog‘iston darajasiga, ya‘ni o‘rtacha darajani amaldagi 7,4 foizdan 5,7 foizga tushirish nazarda tutilgan. Bu boradagi tahlillar shuni ko‘rsatdiki, eng avvalo, tariflar va ichki narxlarning pasayishi tufayli eksport jozibadorligi oshishi tufayli eksport hajmi 0,06 foizga ortishi va ichki tovarlar taklifi 0,03 foizga kamayishi mumkin. Ayni paytda ichki bozorda narxlarning pasayishi natijasida iste‘mol hajmi 0,11 foizga ortadi. Davlat byudjeti daromadlarining qisqarishi hisobiga, jami jamg‘armalar 0,35 foizga kamayadi<sup>15</sup>. Jamg‘armalar hajmining kamayishi investitsiyalar darajasini 0,16 foiz tushishiga olib kelish ehtimoli bor.

Tabiiyki, mamlakatimiz uchun bu borada qanday muammolar yuzaga keladi, degan haqli savol tug‘iladi.

**Birinchidan,** O‘zbekistonning JSTga a‘zoli bojxona soliqlarini 8 -10 foizgacha qisqartirishga olib keladi. Bundan esa Davlat byudjeti zarar ko‘radi. Biroq, o‘z navbatida, bojxona tariflarining keskin qisqarishi O‘zbekiston bozorlarida mahsulotlarning arzonlashuviga xizmat qiladi.

<sup>13</sup> <https://adliya.uz/ru/posts/ozbekistonda-jahon-savdo-tashkilotiga-azo-bolish-y>

<sup>14</sup> <https://yuz.uz/uz/news/jst-ozbekistonga-nima-beradi>

<sup>15</sup> <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m11427>



Date: 3<sup>rd</sup> May-2026

**Ikkinchidan,** iqtisodiyotni liberallashtirish, sanoatni xususiyashtirish, bozor erkinligiga davlat aralashuvini cheklash borasida tugallanmagan ishlar turibdi.

**Uchinchidan,** respublika ichkarisida zamon talabiga mos bozorbop mahsulot ishlab chiqaruvchilar, xususan, paxta ishlab chiqarishga ixtisoslashgan o'zbek fermerlari arzon va sifatli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi Xitoy, Hindiston, BAA savdo shirkatlariga raqobat qila olmasligi xavfi tug'iladi. Oqibatda qishloq xo'jaligi daromadsiz sohaga aylanib qolishi, bu esa 48,5 foizi qishloqlarda yashaydigan aholi<sup>16</sup> uchun yangi infratuzilmani yaratish zaruratini keltirib chiqaradi. Qishloqqa sanoat tarmoqlari kirib kelishi G'arb mamlakatlarida bo'lganidek, fuqaroning tafakkur dunyosi jiddiy o'zgarishiga va ijtimoiy faolligiga olib keladi.

Bu o'rinda tashkilotga a'zolikning afzalliklarini Xitoy xalq Respublikasi misolida ko'rib chiqamiz. Xitoy 15 yillik murakkab muzokaralar olib borgandan so'ng, ushbu kelishuvlar asosida 2001-yil 11-dekabrda tashkilotga 143-a'zo bo'ldi. Biroq hukumatga bu borada qator og'ir va mashaqqatli talablarni ilgari surishdi. Tarifni pasaytirish, AQSH kompaniyalari uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari tariflarini 25 foizdan 7 foizgacha qisqartirish, Amerika fermerlari uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxini 31 foizdan

14 foizgacha arzonlashtirish, bank sektori, sug'urta, telekommunikatsiya va kasbiy xizmatlar kabi muhim sohalaridagi qator tarmoqlarni keng miqyosda ochish, tizimli islohotlar olib borish, oshkoralik masalasida chuqur islohotlarni o'tkazish, Xitoyda faoliyat yuritayotgan xorijiy kompaniyalarga to'siqlarni bartaraf etish shular jumlasidandir. Ko'rinib turibdiki, Xitoyning JSTga a'zo bo'lishi bilan bog'liq asosiy muammo bozorga kirish imkoniyati emas, balki iqtisodiy rejimning shaffofligi, huquqiy, ma'muriy va institutsional tizimni shakllantirish majburiyatlarini bajarish mexanizmi bo'lgandi. Muzokaralarning yakuniy bosqichida XXR ga yana ushbu vazifalar ham qo'yildi: eksportni rejalashtirish va eksport-import rejalarini amalga oshirish siyosatini rejalashtirish tizimini bekor qilish; tashqi savdo rejimining shaffofligi, litsenziyalash va kvota tizimi, davlat xaridlari bozori, xorijiy ishbilarmonlarga ichki bozor xizmatlaridan foydalanishni erkinlashtirish; eksport subsidiyalarini olib tashlash; davlat korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashdan voz kechish va qishloq xo'jaligini himoya qilishdek muhim masalalarga Xitoy xalq respublikasi yakdil mezon yaratib berdi va dunyoning rivojlangan davlatlari qatoridan joy olmoqda.

Dunyoda globallasuv va xalqaro integratsiya rivojlanayotgan davrda markaziy Osiyoning "bir musht" bo'lib harakat qilishi va iqtisodiy salohiyatlarni bir platformada shakllanishi bu juda muhim tendensiyadir. Biz qanchalik erkin va barqaror savdo rejimlarini qo'llamaylik, mintaqada xavfsiz shaoit yaratilmas ekan, ushbu chora-tadbirlar o'z jozibasini yo'qotadi. Markaziy Osiyodagi davlatlar o'rtasidagi noformal uchrashuvlar asli mohiyati bitta maqsad yo'lida birlashuvni taqazo etmoqda. Davlatimiz 2012-yildagi qabul qilgan "Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi" da avvalo yaxshi qo'shnihilik tamoyillariga tayanishni maqsad qilgan bo'lsa, iqtisodiy rivojlanishda JST ga a'zolik

<sup>16</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>



Date: 3<sup>rd</sup> May-2026

davlatimizning belgilab qo‘ygan ustuvor vazifalarini yanada rivojlanishiga katta turtki beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlamoqchimizki, O‘zbekiston uchun JST a’zoliqi katta imkoniyatlar eshigini ochadi: yangi bozorlarga kirish, investitsiyalar, raqobatning oshishi, iqtisodiy shaffoflikning mustahkamlanishi va bundan kelib chiqayotgan iqtisodiy xavfsizlik jihatidan mustahkamlanish. Biroq bu jarayon o‘z ichida ayrim xavf(risk)lar keltirib chiqaradi, xususan ichki sanoatning raqobatga tayyor emasligi, tashqi qaramlikning oshish xavfi, regulyatoriy majburiyatlarning ortishi. Shuning uchun mamlakatimiz uchun eng muhim jihat bu a’zolikni “maqsad” emas, balki “vosita” sifatida qabul qilib, ichki siyosat va sanoat strategiyasiga moslashuvga erishish. Agar bu amalga ohsa, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash yo‘lida real ijobiy natijalar erishish mumkin. Mintaqalararo munosabatlarga ta’siri esa, avvalo savdo-sotiqda va investitsiyada ichki turizm va xalqaro bozorga Markaziy Osiyoning qo‘shimcha qiymat zanjiri sifatida kirib borishini ta’minlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Bacchetta, Marc, and Zdenek Drabek (2002): JSTga a'zolikning suveren davlatlarda siyosat ishlab chiqishga ta'siri: o'tish davridagi mamlakatlarning so'nggi tajribasidan dastlabki saboqlar, JST ishchi hujjati DERD-2002-02, Jahon savdo tashkiloti, Jeneva.
2. Bagwell, Kyle va Robert Staiger (2003): Jahon savdo tizimining iqtisodiyoti (MIT Press: Cambridge MA).
3. Bagwell, Kyle va Robert Staiger (2009): JST: Nazariya va amaliyot, NBER ishchi hujjati 15,445 (Milliy iqtisodiy tadqiqotlar byurosi: Kembrij MA). ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference 40
4. Baturina, Valentina, Jaxongir Muinov va Evgeniya Elfimova 2004 yil): O‘zbekiston JSTga yo‘lda: To‘qimachilik va tikuvchilik sanoati uchun xavf va foyda, O‘zbekiston iqtisodiyoti, 88-93 – <http://www.uzbearingpoint.com> saytida mavjud. /files/3/a11.pdf
5. Kampos, Nauro (2004): O'tish davridagi iqtisodiyotlarda JSTga a'zolik nimaga yordam beradi? Empirik tadqiqot, Iqtisodiy integratsiya jurnali, 19(2), 395-415.
6. Irwin, Duglas, Petros Mavroidis va Alan Sykes (2008): GATTning Ibtidosi (Kembrij universiteti nashriyoti: Nyu-York).
7. Jekich, Yovan (2019): JSTga kirish jarayoni, 24-26 iyun kunlari Toshkentda taqdimoti <https://www.carecprogram.org/uploads/07-WTO> AccessionProcess.pdf manzilida mavjud.
8. Kaminski, Bartlomiej, and Saumya Mitra (2012): Chegarasiz bozorlar va Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya: savdo va transchegaraviy hamkorlikning rivojlanayotgan shakllari (Jahon banki: Vashington DC).
9. Kolesnikova, Irina (2013): JSTga a'zo bo'lish va iqtisodiy rivojlanish: yangi qo'shilgan mamlakatlar tajribasi va Belarus uchun oqibatlari, IPM tadqiqot markazi siyosatini muhokama qilish uchun hujjat PDP/13/04, Minsk, Belarus – <http://eng.research> saytida mavjud .by/webroot/delivery/files/english/pdp/pdp2013e04.pdf
10. Levy, Fil va Chad Boun (2020): Yaxshiroq savdo bitimiga olib boradigan barcha yo‘llar JST orqali olib boradi, Tashqi siyosat, 28-may –



Date: 3<sup>rd</sup> May-2026

<https://foreignpolicy.com/2020/05/28/tradedeal-wto-manzilida-mavjud-trump/> Normatov, Jamshid (2018): Uzbekistan's Long Way to World Trade Organization, EUCACIS №2 onlayn hujjati –

[https://www.cife.eu/Ressources/FCK/EUCACIS20Online20PaperNo20220Nor](https://www.cife.eu/Ressources/FCK/EUCACIS20Online20PaperNo20220Normatov_final.pdf)

matov\_final.pdf manzilida mavjud – L. 'Europe Enformation, 2018/1 (№ 385), 104-11.

11. O'Casey, Eimear (2018): O'zbekiston avtomobil sanoatida eksport va diversifikatsiya qilish, Control Risks, 6 sentyabr –

[https://www.controlrisks.com/ourthinking/insights/automotive-export-anddiversification-drive saytida mavjud -in-uzbekistan](https://www.controlrisks.com/ourthinking/insights/automotive-export-anddiversification-drive-saytida-mavjud-in-uzbekistan) Petri, Peter, and Michael Plummer (2016): The Economic Effects of the Trans Pacific Partnership: New estimates, PIIE Working Paper 16-2, Peterson Institute for International Economics, Washington DC.

12. Pomfret, Richard (2001): Mintaqaviy savdo kelishuvlari iqtisodiyoti (Oxford University Press: Oxford UK).

